

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova

Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish 7

G.G'.G'affarova

Raqamli jamiyatning intellektual madaniyati: falsafiy tahlil..... 13

K.D.Yarashev

Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligidagi talabalarda boshqaruv kompetentligining tavsifi..... 17

A.A.Rayimov

O'quvchilarda akkulturatativ ko'nikmalarni rivojlantirishda madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy-pedagogik zarurati 21

O.A.Ashurova

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti 25

N.M.Aliyev

Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari..... 30

S.S.Ulkanov

Transport vositalari muhandisligi yo'nalishi talabalarining bilim olishlarida zamonaviy o'quv-didaktik vositalar asosida o'qitishning afzalliklari 35

T.M.Burxanov

O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari akademiyasi kursantlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va diniy qarashlarining statistik tahlili 40

U.R.Radjabov

Maktablarda yengil atletika musobaqalarini o'tkazishning oddiy qoidalari..... 44

Sh.A.Mamajonov

Ekologik tarbiyalanganlik-jamiyat va uning taraqqiyoti uchun muhim omildir 48

F.K.Yusupova

Talabalarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlanishida texnik ijodkorlikning o'rni 53

O.O.Qodirov

O'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning o'ziga xosligi va zaruriyati 58

M.M.Mamatkodiroy

Maktab ta'limida raqamli texnologiyadan foydalangan holda o'qitish usullarini takomillashtirish 63

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida tarmog'i bo'yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish..... 70

FALSAFA

I.A.Suvanov

Globalashuv sharoitida xavfsizlik va barqarorlikka rahna soluvchi mafkuraviy tahdidlar 76

A.N.Meliboyev

Kambag'allikka qarshi kurash strategiyasi orqali yangi O'zbekistonda farovon jamiyat qurish istiqbollari 83

G'.Z.Abduraxmonov

G'oyaviy birlashuv tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari..... 88

S.S.Jabborova

O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli 93

G'OYAVIY BIRLASHUV TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI

СОДЕРЖАНИЕ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ ИДЕЙНОГО ЕДИНСТВА

CONTENT AND CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPT OF IDEOLOGICAL UNIFICATION

Abduraxmonov G'ayratjon Zokirovich¹

¹Abduraxmonov G'ayratjon Zokirovich

– Farg'ona Politehnika instituti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy birlashuv zaruratining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etish uchun avvalo g'oyaviy birlashuv va milliy birdamlik tushunchalarining mazmun-mohiyati, lug'atlarda ta'riflanishini tadqiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bois, g'oyaviy birlashuvkonseptual asoslari tushunchasini yoritish to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье для изучения социально-философских аспектов необходимости национального объединения целесообразно предварительно изучить содержание и классификацию понятий мировоззренческого понимания и национального единства в словарях. По этой причине представлено мнение и комментарии по уточнению понятия идеологического единства.

Abstract

In this article, in order to study the socio-philosophical aspects of the need for national unification, it is appropriate to study initially the content and classification of the concepts of ideological understanding and national unity in dictionaries. For this reason, the opinion and comments on the clarification of the concept of ideological unity are presented.

Kalit so'zlar: g'oyaviy birlashuv, ijtimoiy-falsafiy, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy-nazariy qarashlar, milliy birlashuv g'oyasi, milliy birdamlik tamoyillari, barkamol inson, ta'lim standartlari, gumanizm g'oyasi, texnologik iqtisodiy.

Ключевые слова: мировоззренческое осмысление, социально-философское, современное мировоззрение, научно-теоретические взгляды, идея национального единства, принципы национального единства, совершенный человек, образовательные стандарты, идея гуманизма, технологическая экономика.

Key words: ideological understanding, socio-philosophical, modern worldview, scientific-theoretical views, the idea of national unification, principles of national unity, perfect person, educational standards, the idea of humanism, technological economy.

KIRISH

Bugungi kunda jahonda globallashuv jarayonlarining tezlashishi, integratsion aloqalarning chuqurlashuvi "milliy chegaralarni" yuvib yubormoqda. Natijada davlatlarning ichki barqarorligi, milliy birligi va g'oyaviy birdamligi tahdid ostida qolmoqda. Bunday vaziyatda har bir davlat o'zining ulug'vor maqsadlaridan kelib chiqqan holda jamiyatni birlashtirishi, xalqni yagona g'oyaga ishontrishi va bu g'oya orqali barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash mumkinligini singdirib borishi talab etilmoqda. O'zbekiston ham o'zining yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, jamiyatda milliy birlashuvni shakllantirish, milliy birdamlik asosida faoliyat yuritishni ta'minlashga doir vazifalar dolzarblik kasb etmoqda. Zero, "ijtimoiy hamkorlik jamiyatda tinchlik va barqarorlik, yuksak taraqqiyotni ta'minlashning muhim omilidir. Ijtimoiy hamkorlik bo'lmagan jamiyatda boshboshdoqlik, turli millat va elat vakillari o'rtasida ishonchsizlik ortib, qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchayishi, bu esa, oxir-oqibatda, og'ir inqirozga olib kelishi mumkin".[1] Shu ma'noda jamiyatimizning yangi taraqqiyot bosqichida milliy birlashuv g'oyasi asosida ijtimoiy hamkorlikka ehtiyoj paydo bo'lmoqda.

Mazkur tadqiqot ishining umumiy maqsadidan kelib chiqqan holda milliy birlashuv zaruratining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etish uchun, avvalo, g'oyaviy birlashuv va milliy birdamlik tushunchalarining mazmun-mohiyati, lug'atlarda ta'riflanishini tadqiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bois g'oyaviy birlashuv tushunchasini yoritishni lozim topdik.

Yangi O'zbekiston strategiyasi – fuqarolarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini kengaytirish, ularning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish, ilg'or tashabbuslarini amalga oshirish, hayotiy muammolarini hal etish, turmush darajasini yuksaltirish, mustaqil ravishda o'z

FALSAFA

moddiy farovonligini oshirishi uchun yetarli va zarur sharoitlarni yaratish deganidir.[2] Taraqqiyotning yangi bosqichida mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, unda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish bilan milliy g'oyaning siyosiy sohadagi xususiyatlarining mohiyati ana shularda namoyon bo'ladi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari[3] sifatida belgilanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, insonning va jamiyatning intellektual salohiyati yuksalishida g'oya asosiy manba hisoblanadi. Chunki insoniyat va jamiyat ehtiyojlarning uzluksiz beto'xtov o'sib kelishi g'oya asosida rivojlanib boradi. Bu jarayon o'z navbatida ehtiyojlarni qondirish borasida yuzaga keladigan muammolar va vazifalarni hal qilishga qaratilgan g'oyalarning shakllanishiga olib keladi. Shu ma'noda ham g'oyani o'sib kelayotgan ehtiyojlarning in'ikosi va uni qondirish borasidagi muammolar va vazifalar tizimini o'zida ifoda ettiradi, deyish mumkin. U bu yo'nalishda istiqbolga xizmat qiluvchi qarashlar, maqsadlar va xulosalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev 2021–yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida "jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq avvalo ma'naviy birlashuvi, milliy g'oyasi bilan yuksalganini, bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo'ldan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g'oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega"[6] ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, u yana quyidagi fikrlarni ham qo'shimcha qiladi: "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan". Shunday ekan, yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'li g'oyaviy birlashuv asosida, milliy birdamlik tamoyillari orqali qurilishi zarurligi kelib chiqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy munosabatlar demokratik, huquqiy davlat hamda umuman ijtimoiy hayotning yuksak aql mezonlari asosida tashkil etilishini talab etadi. Bularning barchasi yagona ideologiya "milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan g'oya asosida amalga oshirilmoqda. Maqsadga erishishning turli yo'llari, turlicha vositalari mavjud. Maqsad – yo'nalishni belgilaydi, yo'nalish esa oqilona reja tuzishni talab etadi. Maqsadga erishish obyektiv va subyektiv omillarning to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq.[5] Aniqlangan yo'nalish muayyan shart-sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin, shuning uchun bu shart-sharoitlarni yaratish zarur. Shart-sharoitlar – yo'nalishning imkoniyati emas, balki amalga oshirishdir. Jamiyatda maqsadlar mushtarakligi ijtimoiy hamkorlikni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy hamkorlik jamiyat barqarorligining asosi hisoblanadi. "Ijtimoiy hamkorlik g'oyasini amalga oshirish yo'lida g'ov bo'ladigan eng xatarli to'siqlar aqidaparastlik, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik, mahalliychilik, tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir.[6] Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Mafkuraviy kurashlar kuchayib borayotgan bugungi kunda fuqarolarimiz o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi".[7] Shu bois, jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida insonlarni ijtimoiy hamkorlikka undovchi birlashtiruvchi g'oyaga, hamjihatlikka undovchi ideologik kuchga ehtiyoj ortib bormoqda.

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida oliy maqsadga erishish uchun g'oyaviy birlashish va milliy birdamlikni shakllantirish lozim. Maqsad harakatga muvofiq bo'lishi uchun shart-sharoitlar qanday bo'lishi kerak? Bunday shart-sharoit – maqsadga maksimal darajada erishish va g'oyaning amalga oshirilishidir.

Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida g'oyaviy birlashuv o'ziga xos milliy mafkuradir, u muayyan mulohaza, qoida, fikrlarda ifodalanadi. Unga erishish ilmiy, texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy determinantlar majmui sifatidagi obyektiv shart-sharoitlarga hamda subyektiv omillar, jamiyatda ijtimoiy adolatning ta'minlanishi, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolarning ijtimoiy faolligi va ijtimoiy

munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy tamoyil va huquqiy normalarga bog'liqdir. Maqsadga turli vosita, usullar yordamida erishiladi. Maqsadga erishish vositalari ham moddiy, ham ma'naviy bo'lishi mumkin. Maqsad aloqalari tizimi harakatlar dasturida aks etadi. Maqsad va unga erishish vositasining o'zaro ta'siri ularning umumiy tomonlari mavjudligi bilan bog'liq. O'zaro ta'sir umumiy tomonlar orqali amalga oshiriladi, buning natijasida o'zaro ta'sir etuvchi tizimlar o'zgaradi.

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, milliy xavfsizlik, barcha sog'lom fikrlovchi fuqarolar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning ijtimoiy g'oyaviy mushtarakligiga asoslanadi. Bu borada O'zbekistonning eng asosiy yutug'i "ko'p millatli xalqimizning vujudga kelayotgan qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligi yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealarga beparvo bo'lmasdan, aksincha, daxldorlik tuyg'usi bilan yashayotganidir"[8]. Demak, ijtimoiy mushtaraklik jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar va ayrim jamiyat a'zolari uchun ma'qul bo'lib, o'z maqsadlarini, orzu-niyatlarini amalga oshirishda teng imkoniyatlar va sharoitlarga ega bo'lishlarining majmuasidir. Ijtimoiy mushtaraklik, murosa ma'lum bir qadriyatlar tizimiga asoslangan bo'ladiki, bu qadriyatlar jamiyatning aksariyat qismi uchun maqbul bo'ladi. Tinchlik, totuvlik, xavfsizlik, barqarorlik, ijtimoiy adolat kabi qadriyatlar shular jumlasidandir.

Hozirgi sharoitda g'oyaviy birlashuv O'zbekiston barqarorligi va olg'a qarab rivojlanishining asosi sifatida jamiyat faoliyatining barcha sohalarida amalga oshmoqda. Bugungi kunda jahonda ham jamiyatlarning g'oyaviy birlashuvi ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Chunki "insonlararo munosabatlarda o'zaro hurmat, yordam, hamkorlik, mehr, muhabbat, hamdardlik kabi ulug' qadriyatlar darz ketgan. Bugun "o'zing uchun o'l yetim", me'yordan ortiqcha "men"likka ruju qo'yish kabi salbiy holatlar kuchayib bormoqda. Ota-ona, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'chilik kabi azaliy qadriyatlarga allaqachon putur yetgan, bugun bu jarayon yanada oshib bormoqda. Ularning oqibatida insonning o'zligidan begonalashuvi kuchaymoqda. O'zining inson sifatidagi qadriyatini e'zozlash tuyg'ularidan mahrumlashib bormoqda". Shunday ekan, jamiyatda begonalashuv fenomenini kuchayib ketmasligi va insonlardagi ijtimoiy mas'uliyatni yo'qolib ketmasligi uchun ham jamiyatda g'oyaviy birlashuvga ehtiyoj saqlanib qolaveradi.

Ajdodlar qoldirgan boy milliy merosni o'rganmasdan turib, insonlar tafakkurini yangilash, mustaqil, erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ma'naviy shakllanish, takomil topish, yuksalish formulasini yaratish mumkin emas. Sharq faylasuflari ta'limotida Vatanni sevis, insonni asrab-avaylash, tabiatga munosabat, bilim olish, axloqiy fazilatlariga ega bo'lishga undovchi fikrlar juda ko'p. Ularda inson uchun munosib bo'lgan hayot sharoitlarini yaratish, baxt-saodat, komillikka yetaklovchi yo'llarni izlash va tafakkurni o'stirish, aql-zakovatini takomillashtirib borishga qaratilgan bebaho g'oyalar ifodalangan. Bu borada qadimgi davr Xitoy falsafasi va uning nomdor vakili Konfutsiy qarashlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xitoydagi tartibsizlik, siyosiy beqarorlik va boshboshdoqlikni tugatish uchun Konfutsiy o'ziga xos chora-tadbirlarni taklif qildi. Konfutsiyning fikricha, buning uchun insonlarni tarbiyalab, ularni axloqiy normalarga rioya qilishga chaqirish kerak, shundan so'ng davlatning o'zi muvozanatga keladi, jamiyatda birdamlik hosil bo'ladi. Muammolarni hal qilishda faqat siyosat va iqtisodiyotga emas, balki insonning ruhiy-ma'naviy holatiga tayanib ish ko'rish kerak. Shu tahlilda, Konfutsiy davlat ahamiyatiga molik muammolarni inson omili kesimida hal etishga da'vat qiladi.

Konfutsiy qarashlari asosida jamiyatni birlashtirish, g'oyaviy birlashuv asosi "Butun dunyo – yagona davlat" g'oyasini asosida amalga oshiriladi. Bu yerda "Butun dunyo" sifatida Xitoy nazarda tutilmoqda. Mamlakatdagi g'oyaviy birlashuv kafolati har bir insonning jamiyatda o'z o'rniga ega ekanligi bilan belgilandi. Konfutsiy bu holatni, ya'ni insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosi sifatida insonparvarlik ilgari suradi.

O'rta asrlar arab-musulmon falsafasida ham jamiyat jamiyatda g'oyaviy birlik va ijtimoiy birdamlikni shakllantirish orqali taraqqiyotga erishish mumkinligiga oid qarashlar ko'plab faylasuflar tomonidan ilgari suriladi. Xususan, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy inson va jamiyat hayotida mafkura hamda g'oyaning naqadar muhim o'rin tutganligi haqida shunday deb yozgan edi: "Inson baxt-saodat nimaligini tushungan bo'lsa-yu, unga erishishni maqsad qilib olmasa, g'oyani o'z xohishiga aylantirmagan bo'lsa, unga nisbatan ozgina bo'lsa-da, zavq va shavq sezmasa, istak va mulohazasini, kuch va quvvatini boshqa narsalarga sarflasa, qilmishlari yomon va noo'rindir".[9]

Yangilanayotgan O'zbekistonda yangi g'oyaviy konsepsiya zarurligini va bu asosda jamiyatda g'oyaviy birlashuvni shakllantirish, milliy birdamlik, hamjihatlikni oshirish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim.

FALSAFA

- milliy o'zlikni, an'analarni, xalqning orzu-umidlarini, jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarini qamrab olishi;
- jamiyatning barcha a'zolarini yagona milliy bayroq atrofida birlashtirib, ularni buyuk maqsadlar sari chorlaydigan g'oyani yaratishni;
- millatchilik, boshqa xalqlarni mensimaslik kayfiyatidan xoli bo'lib, jahon hamjamiyatida o'zimizga munosib o'rin, hurmat va izzat qozonishida poydevor bo'lishini;

NATIJALAR

O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning muhim omili g'oyaviy birlashuv va bu orqali ma'naviy tiklanish sifatida ko'rilmogda. Mamlakatda milliy g'urur, inson qadr-qimmatini baland ko'tarish, milliy qadriyatlar, fazilatlar va milliy fe'l-atvor, milliy axloq, hayot tarzi, kindik qoni to'kilgan tuproqni sevish va e'zozlash, ulug'larga, ota-bobolar ruhiga hurmat, kichikka izzat, nogironlarga xayr-saxovat tuyg'ularini tiklash, mehr-oqibat, bir-biriga muhabbat tuyg'ularini e'zozlash singari azaliy ma'naviy sifatlar ilgari surilmogda. Har qanday milliy g'oya, milliy mafkura davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmasa, uning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatining tarkibiy qismiga aylanmasa, u rivojlanmaydi, xalqni birlashtira olmaydi. Siyosat va mafkura go'yoki egizaklar kabi bir-birini taqozo etadi. Mafkuralarning barchasi hokimiyat nufuzi va hokimlik munosabatlari muammosi bilan uzviy ravishda bog'lanib ketadi. Chunki har qanday hokimiyat yoki siyosiy partiya o'z maqsad muddaolariga keng xalq ommasini ishontirish uchun kuchli, ta'sirchan mafkuraga muhtoj bo'ladi. Shu bilan birga Taraqqiyot strategiyasida ham "Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish, xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish"ga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Jahon tajribasidan ma'lumki, insoniyat tarixida tajovuzkor, millatchilik, shovinizm, fashizmga asoslangan, buzg'unchilikka xizmat qiladigan vayronkor g'oyalar tufayli millionlab begunoh kishilarning qoni to'kilgan, shaharlar va qishloqlar vayronaga aylangan. Bunday vayronkorlik, inson yuragida qoldirilgan jarohatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun kishilik jamiyatiga yuz yillar kerak bo'lgan.

G'oyaviy birlashuv odamlar ongida tushuncha shaklidagina yashamay, amaliyotda, real amaliyotda namoyon bo'lishi zarur. Shundagina u jamiyatni tashqi nosog'lom ma'naviy tahdidlardan himoya qiladigan kuchga aylanadi. Jamiyatda g'oyaviy birdamlik zaif bo'lsa, insonlarda millat taqdiri va Vatan kamolotiga xizmat qilish, ona tuprog'ini ko'z qorachig'idek asrash, xalqi, yosh avlodlarni buzg'unchi, yot oqimlardan himoya qilish tuyg'usi bo'lmaydi.

Milliy birdamlikni targ'ib qilgan ma'rifatparvarlik harakati mamlakatni feodal qoloqlikdan chiqarish uchun kurashuvchi ilg'or kuchlarning manfaatlarini ifodalovchi g'oyaviy harakat ham edi. Jumladan, M.Behbudiy milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy-siyosiy qaramlik va qoloqlikdan chiqish muammolarini biladigan zamonaviy bilimga ega, yuksak salohiyatli shaxslar bo'lishi zarurligini ta'kidlab, "Islohnii maktab va madrasalardan boshlash zarur, chunki millat hayoti ta'lim-tarbiya bilan belgilanadi, deydi. Ma'rifatparvarlik harakatining yuqori maqomiga ko'tarilgan jadidlik namoyondalari A.Fitrat, A.Avloniy, M.Abdurashidxonovlarning[10] asarlarida g'oyaviy birdamlik, hamjihatlik, ilmiy-falsafiy tafakkurning o'sishi, ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirish kabi g'oyalarini o'ziga xos talqinlarini ko'rish mumkin.

MUHOKAMA

G'oyaviy birlashuvga xizmat qiladigan, milliy birdamlikni shakllantiradigan mafkurani jamiyat a'zolari qalbi va ongiga singdirish muhim masala bo'lib, u odamlarni, avvalo yoshlarni ezgu g'oyalarga ishontirish, ularni bir maqsad atrofida uyushtirish, faollashtirish, mas'uliyatini oshirish, oliyjanob maqsadlar sari safarbar etishda ma'naviy-ruhiy jihatdan ulkan ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jamiyatning g'oyaviy birlashuvi undagi millat va elatlarning milliy o'zligini anglash jarayoni bilan uyg'un kechadi. Milliy o'zlikni anglash — millat ma'naviy taraqqiyot darajasi mazmuni, o'ziga xosligini tavsiflovchi ijtimoiy, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, estetik, diniy, falsafiy qarashlarini o'ziga xosligi ko'rinishidagi munosabatlar majmuasi. milliy o'zlikni anglash milliy ongning rivojlanishidagi yangi yuksak darajasi sifatida qaraladi. Milliy o'zlikni anglash sharoitida milliy manfaatlarni o'rganish hamda nazariy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu

borada qator ilmiy izlanishlar amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Demak, milliy o'zlikni anglash jarayonlariga e'tiborsizlik yoxud noxolis yondashuv chetda turgan yot kuchlarga o'z geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirishda barqarorlikni parchalovchi dastak sifatida salbiy mazmundagi millatchilik omilidan foydalanishlari mumkin. Shuning uchun ham, ko'pgina olimlar millatchilikka o'z millatini va uning manfaatlarini xudbinlik zaminida mutlaqlashtirish yo'lida boshqa millatlarning manfaatlari bilan hisoblashmaydigan, ularni kamsitib, ijtimoiy adolatsizliklar tug'diradigan illat sifatida talqin etishgan. Shunday ekan, jamiyatning g'oyaviy birlashuvida chegaradan chiqib ketmagan, mutlaqlashtirilmagan milliy o'zlikni anglash jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, "davlat taraqqiyotini ijtimoiy-ma'naviy omillardan xoli tarzda tasavvur etib bo'lmaydi. Hozirgi zamon globallashtirish jarayonlari bu masalani yanada dolzarblashtiradi". Bugungi kunda muayyan mamlakatning taraqqiyotini faqat moddiy ne'mat va xizmatlar hajmining o'sishi bilan belgilash mumkin emasligi tobora ayon bo'lib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bu borada quyidagi fikrni aytadi: "Bizning maqsadimiz – yurtimizda xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashdan iborat. Ishonchimiz komil: xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak". Shunday ekan, xalq manfaatlarini ustuvorligi, inson huquqlari va erkinliklari ta'minlanishi, boshqaruvda ijtimoiy adolatni va qonuniylilikni shakllanishi ham jamoatchilik birdamligiga bog'liqligi va bu jamiyatning yakdil g'oyaviy birlashuviga ehtiyoj zaruratini ko'rsatib beradi.

XULOSA

Xulosa qilganda, O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatning g'oyaviy birlashuvi zaruratini bugungi kundagi global o'zgarishlar sharoiti bilan, shuningdek madaniyatlararo munosabatlarning chuqurlashuvi, tamaddunlar to'qnashuvining tezlashib borishi, axborotlashuv jarayonining kengayib borishi asosida sodir bo'layotgan g'oyaviy ta'sirlar, mafkuraviy tajovuzlar, beqarorlikni keltirib chiqaruvchi axborot-psixologik tahdidlar zaruratga aylantirmoqda. Bunday tajovuzlarga qarshi yagona chora jamiyatning g'oyaviy birlashuvi, hamjihatligi, ijtimoiy birdamlik hissi bilan bog'liq. Shunday ekan jamiyatimizning rivojlanish pallasida xalqni birlashtirish, uni yangi taraqqiyot yo'liga safarbar etish va ijtimoiy birdamlikni yaratish uchun g'oyaviy birlashuv ehtiyoji ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони// <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Отамуратов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. —Тошкент.: Ўзбекистон. 2018. —Б. 100.
3. Қуронов М. Бизни бирлаштирган ғоя. —Тошкент.: Ғофур Ғулом НМИУ. 2016. —Б. 21.
4. Юсупов Э., Туленов Ж., Ғофуров З. Миллий масала бўйича фалсафий суҳбатлар.-Тошкент.:Фан, 1990. —Б. 69.
5. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат.- Тошкент.: Янги аср авлоди, 2008; Баҳодир Зокир. Глобаллашув зиддиятлари. — Тошкент.:Тафаккур, №1, 2004; Назаров А. Глобаллашув шароитида барқарор сиёсий тараққиёт хавфсизлигини таъминлаш муаммолари. — Тошкент.:ЎзМу хабарлари, № 1/1, 2016.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72 сессиясида сўзлаган нутқи. Интернет манба: <http://www/president.uz>
7. БеҳбудийМ. Танланган асарлар.-Тошкент.:Маънавият, 1999. —Б. 228.
8. ФитратА. Раҳбари нажот.-Тошкент.:Шарқ, 2000. —Б.176
- 9.Авлоний А. Танланган асарлар. 1-жилд. -Тошкент.: Маънавият, 1998. —Б.328
10. Абдурашидхонов М. Хотираларим.-Тошкент.: Шарқ, 2001. —Б. 268.
11. Хажиева М. Онда толерантлик ривожланишининг негизлари.- Тошкент.:Fan va texnologiya, 2010. —Б. 34.
12. Человек и культура межнационального общения (под ред. Шермухамедова С.).-Ташкент.:Ўзбекистан, 1995.